

**AKTIV VA PASSIV OPERATSIYALARING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI  
VA BANK TIZIMIDAGI FUNKSIONAL AHAMIYATI**

**Turdaliyev Oybek Eldorjon o‘g‘li**

*Andijon davlat texnika instituti “Bank ishi va audit”*

*ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi*

*oybekmister7@gmail.com*

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada bank tizimida aktiv va passiv operatsiyalarning o‘zaro bog‘liqligi hamda ularning moliyaviy barqarorlik, likvidlik va daromadlilikni ta’minlashdagi funksional ahamiyati tahlil etiladi. Aktiv va passiv operatsiyalarni samarali tashkil etish banklarni iqtisodiyotda asosiy moliyaviy vositachi sifatida mustahkamlaydi, real sektorni moliyalashtirish imkoniyatlarini oshiradi va bank tizimining barqarorligini ta’minlaydi.

**Kalit so‘zlar:** Bank, aktiv operatsiya, passiv operatsiya, likvidlik, daromadlilik, moliyaviy barqarorlik, depozit, kredit, qimmatli qog‘ozlar, iqtisodiyot, bank tizimi.

**Kirish**

Bank tizimida aktiv va passiv operatsiyalarni tashkil etish uning asosini tashkil etib, moliyaviy resurslarni samarali yo‘naltirish hamda iqtisodiyotni moliyaviy ta’minlashga xizmat qiladi. Mazkur jarayon bank muassasalarining asosiy funksiyasini aks ettirib, milliy moliya tizimining barqarorligini, likvidligini va daromadliliginu ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Aktiv operatsiyalarni amalga oshirish bank aktivlarini oshirish, daromadlarini tashkil etish va likvidligini ta’minlash imkonini bersa, passiv operatsiyalarni tashkil etish bank resurslarini shakllantirish, majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarish hamda moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. Bunda banklar iqtisodiyotning turli tarmoqlariga moliyaviy mablag‘larini yo‘naltirish, tadbirkorlik sub’ektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, investitsiya faolligini oshirish va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda asosiy vositachi sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, ushbu operatsiyalarni to‘g‘ri tashkil etish bank tizimiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, moliya bozorlarini barqaror ishlashiga imkoniyat yaratish hamda umuman iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaliv sharoitda banklar faoliyatida xavflarni samarali boshqarish, likvidlik, rentabellik va xavfsizlik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash asosida aktiv va passiv operatsiyalarni tashkil etish bank tizimining asoslarini mustahkamlovchi asosiy omil hisoblanadi.

### **Asosiy qism**

Aktiv va passiv operatsiyalarni alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq tarzda tashkil etish bank faoliyatining barqarorligini ta’minlovchi asosiy shart hisoblanadi. Passiv operatsiyalarni samarali yig‘ish bank uchun asosiy resurs bazasini tashkil etib bersa, ushbu resurslar asosida aktiv operatsiyalarni amalga oshirish bank daromadliligin oshirishga imkoniyat yaratadi. Mazkur jarayonda asosiy muammo likvidlik, daromadlilik va xavfsizlik o‘rtasidagi muvozanatni to‘g‘ri ta’minlash hisoblangan bo‘lib, ushbu muvozanat bank tizimining barqarorligini, to‘lov qobiliyatini va moliyaviy xavfsizligini bevosita belgilaydi.

Bunda banklar resurslarini joylashtirishda likvidlik xavfi, foiz stavkalari o‘zgarishi, bozor sharoiti hamda qarz oluvchilarning to‘lov qobiliyatini chuqur tahlil qilish asosida qaror qabul qilish zarur. Shuningdek, ushbu jarayonda bankning risklarini aniqlash, baholash va samarali boshqarish tizimini yo‘lga qo‘yish muhim hisoblanadi. Bu esa bankning moliyaviy barqarorligini oshirish, uning asosida iqtisodiyotdagi real sektorni moliyaviy resurslar bilan ta’minlash hamda iqtisodiy o‘sishiga salmoqli hissa qo‘shish imkonini beradi. Bundan tashqari, aktiv va passiv operatsiyalarni muvozanatli tashkil etish bank tizimida ishonch muhitini mustahkamlashga, banklar o‘rtasidagi raqobat sharoitlarini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

Bunda banklar likvidlikni xavf ostiga qo‘ymagan holda daromadlilik darajasini oshirishga intilishi zarur, chunki likvidlik etarli bo‘limgan sharoitda bank o‘z majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarishda qiyinchiliklarga duch kelishi, bu esa moliyaviy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bilan birga, daromadlilikni oshirish maqsadida xavfli aktivlarga yo‘naltirilgan mablag‘lar hajmining oshishi bank xavfsizligini xavf ostiga qo‘yishi ehtimolini tug‘diradi. Shuning uchun ham banklar resurslarini yo‘naltirishda ushbu omillar o‘rtasida muvozanatni to‘g‘ri ta’minlash, xavflarni aniqlash, baholash va samarali boshqarish asosida faoliyatlarini tashkil etish zarur hisoblanadi. Ana shu muvozanatga erishish bank tizimining barqarorligini mustahkamlash, uning asosida iqtisodiyotning real sektorini moliyaviy resurslar bilan ta’minlash hamda umuman iqtisodiy o‘sishiga xizmat qilishiga imkoniyat yaratadi.

Masalan, qisqa muddatli depozitlarni uzoq muddatli kreditlarga yo‘naltirish likvidlik xavfini oshirishi mumkin. Bu holat bankning o‘z majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi xavfini tug‘diradi, chunki depozitlarni qaytarish muddati qisqa bo‘lgan sharoitda bank ushbu mablag‘larni uzoq muddatli aktivlarda joylashtirgan bo‘lsa, likvidlik ta’motida nomutanosiblik yuzaga kelishi ehtimoliga yo‘l ochiladi. Lekin ushbu depozitlarni qisqa muddatli, likvid aktivlarda joylashtirish bank barqarorligini oshirishiga yordam beradi, chunki bu uning to‘lov majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarish imkoniyatlarini oshirib, moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi.

Shu bois banklar resurslarini joylashtirishda likvidlik darajasi, daromadlilik me'yori va xavfsizlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga alohida e'tibor qaratishlari zarur. Ana shu muvozanatga erishish bank tizimining barqarorligini mustahkamlash, uning asosida iqtisodiyotning real sektorini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash va iqtisodiy o'sishiga xizmat qilishiga imkoniyat yaratadi. Bu jarayonda banklar risklarini aniqlash, baholash va samarali boshqarish tizimini yo'lga qo'yish, shuningdek, moliyaviy resurslarini diversifikatsiya qilish asosida likvidlik xavfini minimallashtirishga erishishlari muhim hisoblanadi. Natijada banklar nafaqat o'zlarini moliyaviy inqiroz xavfidan himoya qilishga, balki iqtisodiyotda barqaror kredit resurslarini ta'minlab berishga ham sharoit yaratadilar, bu esa umuman iqtisodiy tizimning barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Aktiv va passiv operatsiyalarni samarali tashkil etish bank tizimining barqarorligini ta'minlaydi. Bu, o'z navbatida, moliya bozorida ishonchlilik muhitini vujudga keltirib, banklar va ularning mijozlarini turli xavf-hatarlardan himoya qilish imkonini oshiradi. Shuningdek, ushbu jarayon iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni samarali taqsimlashga xizmat qiladi, ya'ni bo'sh mablag'larni samarali yo'naltirish asosida real sektorda iqtisodiy faollikni oshirishga sharoit yaratadi. Bundan tashqari, tadbirkorlik sub'ektlarini zarur moliya mablag'lari bilan ta'minlash bank tizimining asosiy funksiyalaridan biridir. Bu milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarish hajmining oshishiga, investitsiya faolligining jadallahishiga va ish o'rinnarining tashkil etilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

To'lov tizimlarini tashkil etish va ularni uzlusiz ishlashini ta'minlash ham bank tizimining muhim vazifasi hisoblangan bo'lib, ushbu jarayon iqtisodiy ishtirokchilar o'rtasida hisob-kitoblarini xavfsiz, samarali va o'z vaqtida amalga oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, bank tizimining ushbu funksiyasi moliya bozorlarini chuqurlashtirishga asos bo'lib, moliyaviy vositalardan samarali foydalanish, resurslarini to'g'ri yo'naltirish hamda iqtisodiy o'sishni oshirishga xizmat qiladi. Shu tarzda banklar iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlovchi asosiy bo'g'in sifatida namoyon bo'lib, iqtisodiy o'sish, investitsiya faolligi va milliy farovonlik darajasining oshishiga bevosita hissa qo'shib kelmoqda.

### **Xulosa**

Aktiv va passiv operatsiyalarni to'g'ri tashkil etish bank tizimining asosini tashkil etib, uning barqarorligini, likvidligini va daromadliligini ta'minlaydi. Mazkur operatsiyalarni muvozanatli tarzda amalga oshirish iqtisodiyotning real sektorini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, tadbirkorlik sub'ektlarini zarur mablag'lar bilan qo'llab-quvvatlash hamda investitsiya faolligini oshirish imkonini yaratadi. Bu jarayonda banklar iqtisodiy o'sishning asosiy moliyaviy vositachilari sifatida namoyon bo'lib, milliy iqtisodiyotning barqarorligini mustahkamlash, uning raqobatbardoshligini oshirish va aholi turmush darajasini yaxshilashga bevosita hissa

qo'shib kelmoqda. Shuningdek, aktiv va passiv operatsiyalarni samarali tashkil etish bank tizimida xavflarni to'g'ri aniqlash, baholash va boshqarish imkoniyatlarini oshirib, moliyaviy xavfsizlikni ta'minlaydi. Bu, o'z navbatida, banklar faoliyatiga bo'lgan ishonchni oshirish, moliya bozorlarini chuqurlashtirish hamda iqtisodiyotda barqarorlikni qaror toptirishga xizmat qiladi. Natijada bank tizimining barqarorligi butun moliya tizimi uchun asos bo'lib, iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish, investitsiya muhitini yaxshilash va milliy iqtisodiyotni yanada ravnaq topishiga yo'l ochib beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Xayrullayev, N.M., G'ulomov, S.S. Bank ishi. — T.: “IQTISOD–MOLIYA”, 2021.
2. Xolbo'tayev, N.I., Nurmatov, A.A. Bank ishi asoslari. — T.: “Iqtisodiyot”, 2021.
3. Abdullayev, Sh. Bank resurslarini samarali tashkil etish yo'llari. — T.: “Moliya”, 2019.
4. Tursunov, B. (2020). “Tijorat banklarida aktiv va passiv operatsiyalarni tashkil etish”. Moliya va bank ishi jurnali. 5(2), 133–145.
5. Mishkin, F. S. The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. 12th ed. — Pearson, 2018.